

O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDAGI DEMOGRAFIK VAZIYAT VA UNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI

Umarova Gulandom

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Demografik vaziyat – muayyan hududda yuz beradigan demografik jarayonlar (tug‘ilish darajasi, o‘lim, migratsiya, nikoh, ajralish)ning miqdor va sifat jihatdan, ma’lum bir davrdagi o‘zgarish oqibatlari hisoblanadi⁹¹.

Har bir mamlakatdagi demografik vaziyat uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tug‘ilish darajasining ortishi muayyan vaqtdan so‘ng mehnat bozorida ish bilan bandlikning tegishli ravishda o‘zgarishiga hamda davlat budjetining ijtimoiy ehtiyojlariga xarajatlari darajasiga, shuningdek, ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimining amalyotga joriy etilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Mehnat bozori esa bu mehnat resurslarini taqsimlaydigan va ish bilan bandlik borasida qarorlar qabul qiladigan bozor tizimi hisoblanib, ushbu bozorda ish beruvchilar xaridor, ishchilar esa sotuvchi vazifasini bajaradi. Bozorining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unda mehnatning o‘zi emas, balki mehnat xizmati – mehnat sarfi sotiladi. Mehnat xizmatining miqdori va sifati esa ko‘plab omillar: xodimning kasbiy tayyorgarligi, malakasi, tajribasi va hokazolar bilan bog‘liq.

O‘zbekiston iqtisodiyotni isloh qilish jarayonida mehnat bozorining shakllanishida muammolar mavjudligi ko‘zga tashlanmoqda. Bozorning hozrgi kundagi o‘ziga xos muammolardan bir aholi bandligining hududlar va tarmoqlar bo‘yicha etarli darajada taqsimlanmaganligidadir.

Bozor munosabatlari esa nafaqat tarmoq va korxonalararo raqobatni, balki hududlar, mintaqalar orasida ham sog‘lom raqobat muhitini taqozo etadi. Bunda har bir hudud o‘z ichki imkoniyatlari, rivojlantiruvchi kuchlaridan to‘laroq va samarali foydalanishga, qulay investitsiya muhitini shakllantirgan holda eksport salohiyatini oshirishga intiladi.

⁹¹<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B5%D0%BC%D0%BE%D0%B3%D1%80%D0%B0%D1%84%D0%B8%D1%8F>
(Материал из Википедии — свободной энциклопедии)

O'zbekiston Respublikasi mintaqalaridagi iqtisodiy-demografik vaziyat

(ko'rsatkichlar respublikaga nisbatan % hisobida olingan (2022yil))⁹²


T/r		Maydoni (kv.km.)	Aholisi	Tug' ilish	O' lim	Mehnat resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiyotda bandlar
	O'zbekiston Respublikasi	448,9	35271,3	932217	172068	19517,5	15038,9	13706,2
1.	Toshkent mintaqasi	3,5	16,3	14,3	22,4	17,3	18,1	18,1
1.1	Toshkent vil.	3,4	8,6	7,8	10,4	8,4	9,0	9,0
1.2	Toshkent sh.	0,07	7,7	6,5	12,0	8,9	9,1	9,1
2.	Mirzacho'l mintaqasi	5,7	6,4	7,0	5,6	6,5	6,5	6,5
2.1	Jizzax viloyati	4,7	4,0	4,5	3,4	4,0	4,0	4,0
2.2	Sirdaryo viloyati	1,0	2,4	2,5	2,2	2,5	2,5	2,5
3.	Farg'ona mintaqasi	4,0	28,4	29,4	27,1	28,1	28,3	28,1
3.1	Andijon vil.	0,9	9,2	9,6	8,9	9,1	9,3	9,3
3.2	Namangan vil.	1,6	8,2	8,8	7,7	8,2	8,1	8,1
3.3	Farg'ona vil.	1,5	11,0	11,0	10,5	10,8	10,9	10,9
4.	Zarafshon mintaqasi	37,4	19,9	19,7	18,9	19,5	19,6	19,6
4.1	Buxoro vil.	9,0	5,6	4,9	5,7	5,5	5,9	5,9
4.2	Navoiy vil.	24,7	2,9	2,8	2,8	2,9	3,0	3,0
4.3	Samarqand vil.	3,7	11,4	12,0	10,4	11,1	10,7	10,7
5.	Janubiy mintaqasi	10,9	17,3	19,5	14,6	17,0	16,4	16,4
5.1	Surxondaryo vil.	4,5	7,7	8,8	6,7	7,6	7,4	7,4
5.2	Qashqadaryo vil.	6,4	9,6	10,7	7,9	9,4	9,0	9,0
6.	Quyi Amudaryo mintaqasi	41,5	10,9	9,5	10,7	10,9	10,6	10,6
6.1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	37,1	5,5	4,6	5,2	5,5	5,2	5,2
6.2	Xorazm viloyati	1,4	5,4	4,9	5,5	5,4	5,4	5,4

Mamlakat milliy iqtisodiyotining hududiy tarkibi 6 ta iqtisodiy mintaqasi (iqtisodiy rayon) majmuasini shakllantiradi. Ular mintaqadagi aholi soni, aholining yashash tarzi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha bir biridan farqlanadi. Masalan, hududiy ko'lami bo'yicha eng katta bo'lgan Quyi Amudaryo hamda uning aksi bo'lgan Toshkent iqtisodiy mintaqalarining o'rtasidagi farq deyarli 12 martani tashkil etadi. Shuningdek, mintaqalarning demografik salohiyat ham bir xil taqsimlanmagan. Masalan, Farg'ona

⁹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

mintaqasi respublika aholisining 28 foizini tashkil etsa, Mirzacho‘l mintaqasida esa bu ko‘rsatkich 6,6 foizdan iborat. Shuningdek, aholi soni Zarafshon va Toshkent iqtisodiy mintaqalarida ham ko‘proqni tashkil qiladi (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan statistik ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra respublika, uning minaqalarida tabiiy ko‘payish jarayoni keyingi yillarda sezilarli darajada kamaygan Respublikada tabiiy o‘shish darajasining pasayishi tug‘ilish darajasining kamayishi bilan bevosita bog‘liq. Tug‘ilish darajasining qisqarishi demografik (ayollar farzand ko‘rish orolig‘ining uzayishi), iqtisodiy (aholi bandligi tarkibidagi o‘zgarishlar) ijtimoiy (aholining, ayniqsa, qishloq aholisi ijtimoiy harakatining kuchayishi, demografik va psixologik tadbirlar samaradorligining oshishi) va boshqa omillarning bevosita ta‘siri natijasida davom etmoqda.



1-rasm.O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘shish dinamikasi (%)⁹³

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra respublikada tug‘ilish darajasi 2022-yilda 26,2 %, o‘lim 4,8% va tabiiy o‘shish 21,4%ni tashkil etagan (rasm).

Mamlakatda aholi sonidagi o‘zgarishlar bevosita uning yosh tarkibi bilan bog‘liq. Aholi tug‘ilish darajasining qisqarishiga qaramay, hali yosh hisoblanadi. Chunki aholi tarkibida 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 57,0 foizni, 16-29 yoshdagilar 25,1 foizni, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar 30,5 foizni tashkil etadi. Ammo statistik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, respublikamiz aholisi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar hamda mehnatga layoqatli aholi sonining 2009-2022 yillar davomida jami aholiga nisbati 0-15 yosh - 33,2% dan 31,0%ga, 16-29 yosh – 8,4% dan 23,7%ga, 0-30 yosh- 63,5% dan 57,0% ga kamayib borayotganini, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar soni esa aksincha 5,7%dan 7,3%ga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu respublika aholisining keksayish darajasi oshayotganligidan dalolat beradi. Aholining keksayishi mamlakat milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazishi va qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, aholining iqtisodiy faolligi pasayyadi, insonning yoshi qancha katta bo‘lsa, mehnatga layoqatlilik qobiliyati tushib boradi,

⁹³ <https://stat.uz/uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari

– aholining keksayishi iqtisodiyotda yoshlar ulushi kamayishini anglatadi. Bu esa ish bilan band aholini kasb-malaka va tarmoq tarkibining o'zgarish jarayoni va binobarin, iqtisodiyotning samaradorligi oshishini sekinlashtiradi,

– pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiya to'lash xarajatlarining ortishi, pensiya jamg'armalariga mablag' to'lab boradigan mehnatga layoqatli aholi salmog'ining qisqarishiga olib kelishi mumkin,

– keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag' sarflash, keksa avlodga xizmat ko'rsatish (gerontologik) muassasalar tarmog'ini kengaytirish va butun sog'liqni saqlash tizimida sifatli tarzda rekonstruksiya ishlarini olib borishni taqozo qiladi,

– aholi sonida katta yoshlilar ulushining ortishi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida ham o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, jumladan, ba'zi texnologik o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Ya'ni, mashina va uskunalarni xodimlarning yosh xususiyatiga moslashtirish, transport vositalari ham ular talabi doirasida bo'lishi kerak,

– eng muhimi hali ishlashni istaydigan nafaqaxo'rlarni ish bilan ta'minlash lozim. Bu birmuncha murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki ayni damda pensiya yoshiga etmaganlarni ham ish o'rinlari bilan ta'minlash dolzarbdir.

Mehnat bozorida aholining jins tarkibi bo'yicha ham o'zaro farq mavjud. Ayollar respublika aholisining 50,2 %, iqtisodiy faol aholining 42,7 foizini, iqtisodiyotda band bo'lgan aholining esa 41,6 foizini tashkil etgan holda, iqtisodiy faol aholining umumiy sonida ularning iqtisodiy faolligi erkaklarning ayni shu ko'rsatkichidan 14,6 % ga, bandligi 5,6 % ga past. Ishsizlik darajasi esa 4,0 % ga ko'p. Ro'yxatga olingan ishsizlarning yarmidan ko'prog'ini (52,8%) ayollar tashkil etadi.

Bundan aytish mumkinki, gender jihatdan ayollar o'rtasida bandlik darajasi erkaklarga nisbatan pastroq. Shu bois ham respublikada xotin - qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatni modernizatsiyalash va demokratik yangilash, jamiyat va davlat qurilishi jarayonlarida xotin-qizlar rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bunda barcha sohalardagi kabi mehnat bozorida ham, aynan, xotin-qizlar masalalariga alohida urg'u berilib, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab - quvvatlash, ayollar uchun yangi ish o'rinlari yaratish, uy mehnati va kasanachilikni rivojlantirish oilalar farovonligini ta'minlash hamda daromad manbalarini shakllantirishning asosiy omil sifatida qaralmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, respublika ma'muriy-hududiy bo'linishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va poytaxt Toshkent shahridan tashkil topgan. Ularning har biri va birgalikda Respublika qudratini mustahkamlash, uning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon hamjamiyatidagi mavqegini ko'tarishga o'zining munosib hissalarini qo'shib kelmoqda. Ushbu ma'muriy tuzilmalar bir-birlarini to'ldiradi, o'zaro iqtisodiy aloqalar (integratsiya) asosida mamlakatning yaxlit tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydilar. Mehnat bozoridagi ishchi kuchi bandligini oshirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri respublika hududlarining o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olgan

holda, ularga mos keluvchi yangi ish joylarini yaratishdir. Hududlar o'rtasidagi farqlar hududlardagi mehnat resurslarining o'ziga xos shakllanishi va ulardan foydalanishida o'z ifodasini topadi. Bu xususiyatlarni bilish mintaqaviy darajadagi mehnat munosabatlarini hisobga olgan holda davlat siyosatini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Abduraxmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. – T.: 2019 y. 592 b.*
2. *Abduraxmonova G., Rustamov D. Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: “GlobeEdit” Publisher 2020 y, 127 b.*
3. *Abdullayev I.S. Mintaqaviy iqtisodiyot tizimini optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. – T.: 2017 y. 67 b.*
4. *Bo'rieva M. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.: “Universitet” 1997 y, 181 b*
5. *Mirzakarimova M.M, Azimova L.S. Bandlik tarkibini shakllantirishning xorij tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari. Iqtisodiyot va ta'lim. 2020 y. №1.*
6. *Umarova M. A. O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorini statistik prognozlashning metodologik asoslari. – T.:2019 y. 200 b.*
7. *Демографический энциклопедический словарь. – М., 1985*

MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISHNING RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Mardiev Bunyod

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Innovatsion Menejment kafedrasida assistenti*

To'rtinchi sanoat inqilobi jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan bir sharoitda har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kadrlar, ayniqsa, sifatli kadrlar hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli, ko'plab mamlakatlar tomonidan inson resurslarini yaratish va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi, chunki hozirgi sharoitda ko'nikma va bilimlar bilan to'liq jihozlangan inson resurslari shaxslar, tashkilotlar va mamlakatlar rivojlanishiga hissa qo'shadi. 20-asr o'rtalarida AQSh, Yaponiya va G'arb davlatlarining kuchli iqtisodiy rivojlanishidan tortib Sharqiy Osiyodagi to'rtta iqtisodga berilgan “Osiyo yo'lbarlari” unvoni va ASEAN davlatlarining jadal o'sishiga qadar bularning barchasi inson resurslarini rivojlantirish siyosati tufaylidir. Biroq, turli mamlakatlarda inson resurslarini rivojlantirish har bir mamlakatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlariga qarab turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi. O'zbekistonda, qariyb 33 yillik yangilanishdan so'ng, mamlakat inson resurslarini rivojlantirishda katta yutuqlarga erishdi, bu butun jamiyatning mahsuldorligini oshirishda yaqqol namoyon bo'ldi, bu o'sish sur'atlarini tezlashtiradi va iqtisodiy raqobatbardoshlik va milliy salohiyatni oshiradi. Yana shuni tan olish kerakki, sarmoya qilingan mablag'lar va sarflangan sa'y-harakatlar, taqdim etilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar bilan solishtirganda, yuqorida tilga olingan yutuqlar hali ham mamlakat salohiyatiga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli, ushbu maqola dunyodagi ba'zi mamlakatlarning inson resurslarini rivojlantirish strategiyalarini